

**LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA
PERSONAJLAR XARAKTERINI YARATISHDAGI INDIVIDUAL USLUB**

Ismatova Iroda Qurbonmurod qiz¹

¹ Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
irodaismatova95@gmail.com*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.06.2025

Revised: 27.06.2025

Accepted: 28.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

*personaj,
integralashmoq, xarakter,
dialekt, emotsiyonal nutq*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanidagi personajlar xarakterini yaratishdagi individual uslubi tahlil qilinadi. Muallifning badiiy mahorati, obrazlar tilini xalqona iboralar, jonli dialoglar, emotsiyonal ifodalar orqali ochib berishdagi yondashuvi o'r ganiladi. Asarda har bir personaj o'ziga xos nutqi, muomala uslubi, fikrlash tarzi bilan ajralib turadi.

KIRISH. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlamalikka yo'l qo'yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish predmetning mohiyatini jonlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi.[4] Badiiy adabiyotda o'ziga xos go'zallik va tarovati bor va undagi har bir obraz o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. "Ulkan iste'dod va samarali ijodiy mehnatining mahsuli bo'lgan har bir asar, muallifning "farzandi" kabitidir. Zero, farzand ota-onadan boshqalarga o'xshamaydigan tashqi ko'rinish, xulq-atvor, xarakter meros qilib olgani kabi yozuvchi asarida ham ungagina xos bo'lgan uslub, xususiyatlar, alohida o'ziga xos jihatlar namoyon bo'ladi. Chunki "Har bir yozuvchining dunyonи ijodiy o'zlashtirish davomida orttirgan hissiyotlar tajribasi, olamni o'ziga xos ko'rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo'li bo'ladi." [1:41;43] Bu fikrlar har bir ijodkorga tegishli, har bir ijodkorning o'z qahramonlari o'z farzandi kabi e'zozlanadi, xuddi mana shunday Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar"

romanidagi har bir personaj ijodkorning o‘ziga xos uslubi yuzasidan dunyoga kelgandir. Har bir qahramon tilidan aytilgan gap-so‘zlar, xatti-harakatlar, qiliqlar uning dunyo qarashini ochib beradi.

Asarning bosh qahramonlaridan biri— Safarmurod chavondoz. Yozuvchi ushbu obraz orqali, gapni cho‘rt kesib gapiradigan, davralarda so‘zni hech kimga bermaydigan, odamlarni tili bilan aytganda “karillab” so‘zlaydigan, mahalliy xalqga xos bo‘lgan xarekterni unda mujassam etgan obrazlardan biri qilib tasvirlaydi. Muallif personajlar xarakterini ochishda ularning so‘zlashuv uslubi, ohangidagi hayajon, ichki norozilik yoki ishonchni har bir manolog orqali mahorat bilan tasvirlaydi.

“O‘rtoqlar deb chinqirib yubordi. Axir, tokay ikki tosh orasida madaniyat nima, taraqqiyot nima, bilmay o‘tamiz? Yetar! Buyerda na elektr bor, na gaz bor, hech qursa, tomi shefer qoqilgan uy ham yo‘q. Ana, men o‘z ko‘zim bilan ko‘rib keldim. O‘v, mulla Mirza, ko‘p tirjayavermang, chin aytyapman, o‘zim guvohi bo‘lib keldim, cho‘l degan joylarga shaharning bir bo‘lagi ko‘chirilinib kelibdi. Tayyor uy-joy, maktab, magazin, klub, hamma-hamma narsa taxt. Axir, g‘amxo‘rlik shunchalik! O‘zlarining bilasizlar, chaqirilgan joydan qolmaslik kerak! Xullas, gap – shu:”[2:7] Shu tarzda, Luqmon Bo‘rixon har bir obrazni o‘z tili, fikrlashi, gapirish uslubi orqali ochadi. Ular bir-biriga o‘xshamaydi: kimdir hayajon bilan gapiradi, kimdir istehzo aralash, yana biri jim bo‘lsa-da, qarashlari, ishtiroki bilan xarakterini bildiradi.

Xalqning polvonlaridan biri – Ashur polvon.

“Ashur esa qo‘llarini beliga tirab aql o‘rgatishga tushdi.

“ - Shavla ketsa ketsin, obro‘ ketmasin, anavi go‘zallar endi cho‘l yigitlarining qanchalar mard-tanti ekanligini bir umr eslab yurishadi, kalla, - dedi.” [2:71]

Yozuvchi Luqmon Bo‘rixon obraz yaratishda xalqona iboralardan, hazil-mutoyiba aralash, lekin mazmunan jiddiy bo‘lgan dialoglardan mohirona foydalanadi. Bu jarayonda personajlarning ichki dunyosi, dunyoqarashi va hayotga munosabati jonli, obrazli til vositasida ochiladi. Bu kabi iboralar muallifning individual uslubini, ya’ni obrazni jonli xalq tili, mantiqli jumlalar, kinoyali lekin mazmunli gaplar orqali yaratish uslubini namoyon etadi. Shuningdek, ushbu jumlada “cho‘l yigitlari” timsolida oddiy, lekin g‘ururli, oriyatli kishilarning obrazini ko‘ramiz — ular moddiy emas, ruhiy ustunlik, obro‘, or-nomus kabi tushunchalarni qadrlashadi.

Asarning yana bir bosh qahramonlaridan biri Movliyev Chinor Toshtemirovich:

“Endi-i, do‘-o‘st, - dedi u, huv, ziyo fatdagidek cho‘zib-cho‘zib.

– O‘zing bir yordam qil. Shu-u.. savob ishni oxirigacha yetkaz. Qishloq oralab muzeyjonimizga ko‘rgazmalar yig‘. Qo‘rqma boshqalar harm ko‘maklashadi, hali majlisda rasman aytaman hammaga. Endi-i... to‘g‘risi, sendan boshqaga ishonch yo‘q eplay olmaydi.”[2:136]

Bu yerda qahramonning so‘zlash uslubi bejiz tanlanmagan. U cho‘zib-cho‘zib gapiradi, “do‘st” deb murojaat qiladi, so‘ng o‘ta yumshoqlik bilan topshiriq beradi. Bu uslub shuni ko‘rsatadiki, obraz rahbarlik qobiliyatiga ega, lekin buyruqboz emas, odamni qattiq so‘z bilan emas, samarali iltimos va ishonch bilan ishontirishni biladigan, mohir muomala egasi. Uning “sendan boshqaga ishonch yo‘q” degan iborasi ham maqtov emas, balki mas’uliyat yuklashning bir usulidir. Bu orqali ijodkor personajni faqat aytgan gaplari bilan emas, gapirish usuli, ohangi, muomaladagi noziklik orqali ham ochadi. Shuningdek, “hali majlisda rasman aytaman” deya davlat darajasidagi jiddiylikni ham bildirish orqali obrazning mas’uliyatli, ijtimoiy faol, tashkilotchi inson ekanligini ko‘rsatadi. Bejizga bu inson 41-sovxozi direktori etib tayinlanmagan.

41- sovxozi agronom-shoiri – Ulash aka.

” – Ketaman... Bosh olib ketaman, - deya baqirib-chaqiradixotining oglantirishlariga e’tibor bermay. – Bu cho‘l-u biyobonlaringda umrim yelga sovurildi, talantim xazon bo‘ldi.... Eh... ketaman!!!”[2:67]

Bu kabi obrazlar orqali Luqmon Bo‘rixon ichki isyoni tashqi muhit bilan to‘qnash kelayotgan shaxslar muammosini yoritadi. Bu uslub esa muallif ijodining individual, ijtimoiy-psixologik tahlilga moyilligi bilan bog‘liqdir. Ushbu obrazni har bir aytgan gaplari, xatti-harakati, qiliqlari o‘ziga xos yaratilgan.

Asarda “butun inson” deb atalgan obraz - Ergash.

“- Ey ... ey, nima qilyapsanlar, tentaklar, - deya qichqirdi, otam mast-alast to‘dani oralab mashshoqlar tomon intilarkan. – Ey to‘xtanglar! Nega motam marshini chalyapsizlar,ey”[2:64]

Bu gap- so‘zlar, ya’ni o‘sha O‘roqjon va Lolaxonlarning to‘ylarida valsiga tushayotgan odamlarga qarata shunday deyilishi obraz orqali jamiyat bunday yangiliklarni qabul qila olmasligini ko‘rsatadi. Bunday obrazlar orqali Luqmon Bo‘rixon o‘z asarlarida nafaqat tashqi ijtimoiy muhitni oddiy qishloq hayoti bilan integralashyotganini ko‘rsatadi.

Asarni hikoya qiluvchi obrazni ammasi:

“- Elimizda “o‘nga kirding – songa kirding” degan gap bor, o‘lay, siz besh sinfni bitirdingiz o‘n birga kirdingiz... Endi go‘dak bola emassiz, o‘lay... Endi otajoningizning qabatida katta yordamchi bo‘ling, o‘lay, har xil bemaza qiliqlarni tashlang, erta-yu kech

o‘yindan ovunib, sandraqlab yurmang....” [2:43] Ijodkor personaj xarakterini ochishda xalqona tilda aytilgan nasihatlar, iboralar va mehr bilan aralash gaplar orqali ularning ijtimoiy rolini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o‘rnini jonli ko‘rsatadi. “Elimizda ‘o‘nga kirding – songa kirding’ degan gap bor, o‘lay...” kabi gaplar xalq og‘zaki ijodidan olingan maqol va iboralar orqali kattalarning nasihatgo‘y xarakterini aks ettiradi.

Yozuvchi shu bilan birgalikda mana shunday obrazlarni xarakterini ochib berishda, ularning tilidan shevalarga xos so‘zlarni ham qo‘llagan. “ko‘kayi, ustedent, ulim, jigit, hamsoya, juray, bova, shuytib“ kabi bir necha mahalliy xalqqa tegishli dialektlarni qo‘llash orqali, yozuvchi har bir personajni jonliroq tasvirlashiga harakat qilgan.

“Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani tahlili asosida badiiy uslubning yozuvchi estetik idealini ifodalash va epik tasvir yaratishdagi o‘rni, asar qahramonlarining ichki va tashqi qiyofasi, xarakteri va ruhiyati talqinidagi estetik vazifasi, uslub va badiiy tasvir vositalarining o‘zaro munosabati masalalari yoritilgani desak adashmagan bo‘lamiz,[3:8]

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” romanida obraz yaratishda o‘ziga xos individual badiiy uslubga ega yozuvchilardan biridir. U personaj xarakterini ochishda xalqona iboralar, jonli dialoglar, emotsional nutq va oddiy odamlar tiliga xos so‘z ohanglaridan mohirlik bilan foydalanadi. Qahramonlar har bir so‘zida ularning fe'l-atvori, dunyoqarashi, ruhiy holati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ba’zilarida kulgi, istehzo, boshqalarida esa iztirob, alam, mas’uliyat, mehr ifodalananadi. Bo‘rixon har bir obrazni o‘z ovozi, o‘z kayfiyati, o‘z dunyosiga ega bo‘lgan inson sifatida yaratadi. Aynan mana shu yondashuv — yozuvchining individual uslubini belgilaydi va asarni badiiy jihatdan jonli, ta’sirchan, hayotiy qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Y.Turdiyeva “ Badiiy uslub individualligi Luqmon Bo‘rixonning “ Jaziramadagi odamlar” romani asosida.” maqola. “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya”
- 2.L. Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” Oltin qalam nashriyoti. Toshkent,2024.
3. .Y.Turdiyeva. Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub individualligi mavzusidagi Dissertatsiyasidan. Toshkent.2025
4. <https://uz.wikipedia.org>